Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

“DEVONI LUG‘OTIT-TURK” ASARIDAGI O‘XSHATISHLARNING HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA VOQELANISHI

Odilova Dilobar,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs tayanch doktoranti

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari asrlarosha turkiy xalqlarning tarixiy merosi sifatida ardoqlanadi. Asardan o‘rin olgan har bir so‘z XI asrda yashagan turk ellarining qadimiy urf-odati, qadriyatlari, madaniy va maishiy turmush tarzidan dalolat beradi. Koshg‘ariyshunos tadqiqotchi S. Rustamova bu borada quyidagi fikrlarni ta’kidlagan: “Devonu lug‘otit-turk” da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolarning nomlari, urug‘, qabilalarning nomlari, faxriy unvonlar, turli lavozimlarning nomlari, oziq-ovqat, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlarning nomlari, jug‘rofiy atamalar, shaharlar, turli kasalliklar nomlari, anatomik atamalar, metallar va minerallarning nomlari, harbiy atamalar va ma’muriy vazifalarga oid atamalar bor. Turli tarixiy va afsonaviy qahramonlarning nomlari, bolalarning o‘yin va ermaklari va boshqalarga xos atamalarga boyligi bilan hozir zamon kishisiga XI asrda yashagan turklarning hayot tarzi haqida ma’lumot beruvchi yagona manba hisoblanadi[1]”.

“Devonu lug‘otit-turk” asarida mavjud leksemalar, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, xilma-xil qamrovga ega. Oziq-ovqat leksikasi, harbiy terminologiya, maishiy turmushga daxldor so‘zlar bilan bir qatorda o‘xshatishlar ham asardagi istilohlar qatorida izohlangan. O‘xshatishlar – tilning lug‘at qatlamidagi o‘ziga xos vositalar hisoblanib, bir obyektning xususiyatlarini ikkinchi obyektga qiyoslash maqsadida qo‘llanadi. O‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari to‘g‘risida N. Mahmudov hamda D. Xudoyberganova quyidagi fikrlarni ilgari surganlar: “O‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan konstruksiyalardir. Shuning uchun ham o‘xshatishlar dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta’sirchanligini ta’minlaydigan alohida vosita

[1] Рустамова С. Маҳмуд Қошғарий ва унинг “Девону луғотит турк” асари // Адабиёт кўзгуси. – Т.: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1996. № 2, 124-125-б..

sifatida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan”[1]. Darhaqiqat, o‘xshatishlardan badiiy vosita sifatida kontekst tarkibida qo‘llash matnning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Badiiy matn tarkibida o‘xshatishni qo‘llash uchun to‘rt asos lozim bo‘ladi, ya’ni o‘xshatilayotgan shaxs yoki narsa, unga o‘xshatilayotgan vosita, o‘xshashga asos, o‘xshatish hosilasi[2]. Ushbu to‘rt unsur asosida o‘xshatish vositasi hosil bo‘lib, matndagi hissiy bo‘yoqning ta’sirchanligini yanada oshiradi.

“Devonu lug‘otit-turk” asarida Mahmud Koshg‘ariy tomonidan qo‘llangan o‘xshatishlar ham bugungi kunga qadar qisman nutqimizda saqlanib qolgan. Ushbu o‘xshatishlarni ma’noviy jihatlariga ko‘ra uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. “Devon”da qo‘llangan o‘xshatishlarning hozirgi o‘zbek tilidagi kabi ma’nosi bir xillik kasb etgan o‘xshatishlar.
2. “Devon”da qo‘llangan o‘xshatishlar hozirgi o‘zbek tilida shaklan mavjud bo‘lsa-da, ma’noda o‘zgarish yuz bergan o‘xshatishlar.
3. Bugungi kunga qadar yetib kelmagan o‘xshatishlar.

Birinchi tasnifga ko‘ra, “Devonu lug‘otit-turk” asarida qo‘llangan o‘xshatishlar hozirgi o‘zbek tilidagi mavjud formasiga ham shaklan, ham mazmunan o‘xshashlik hosil qiladi. Xususan, XI asrda ham farzand tug‘ilishiga nisbatan berilajak savol bevosita birinchi tasnifda keltirilgan o‘xshatishga asoslangan: “Tulki tug‘dimi yoki bo‘ri?”[3]. Ushbu kontekst tarkibida qo‘llangan “tulki” yoki “bo‘ri” leksemalari o‘xshatilayotgan vosita bo‘lib, tulki qiz bolaga nisbatan, bo‘ri esa o‘g‘il bolaga nisbatan ishlatiluvchi o‘xshatishlar sanaladi.

Qiz bolaga nisbatan tulki o‘xshatishini qo‘llash hozirgi o‘zbek tilida aynan “Devon”dagi shaklda saqlanib qolgan. N. Mahmudov hamda D. Xudoyberganova tulkiga xos tabiiy sifatlarning insonga o‘xshatish sifatida “ko‘chishi”ni ta’kidlab, “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da ushbu so‘zga quyidagicha ta’rif beradilar: “Ayyor, quv, hiylagar”[4]. Qiz bolaning tabiatiga xos ayyorlik, hiylagarlik xususiyati XI asrda yaratilgan “Devon”da ham, hozirgi o‘zbek tilida ham unga nisbatan qo‘llanuvchi o‘xshatish birligi sifatida aks ettirilgan.

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da bo‘ri so‘zi o‘xshatish sifatida ikki xil ma’noni, ya’ni ijobiy va salbiy ma’noni ifoda etgan:

“I. Bo‘riday (bo‘ri kabi, -ga o‘xshab):
a) Dovyurak, yovqur, mard. Odam haqida;
b) G‘ajimoq, tish qayramoq.
II. Och bo‘riday:
a) yovuz, shafqatsiz
b) izg‘imoq, tashlanmoq, hujum qilmoq”[5].

Koshg‘ariy o‘g‘il bolaga nisbatan bo‘ri istilohini qo‘llagan holda ushbu hayvonga xos xususiyatni ya’ni uning dovyurak, qo‘rqmasligini shaxsga nisbatan ishlatishni maqsad qilgan. Biroq bo‘ri leksemasi aks ettirgan ikkinchi ma’no (salbiy ma’nosi) “Devon” matnlarida ko‘zga tashlanmaydi.

“G‘azab o‘ti ko‘kraklarida yonayotganday soqollariga osilishar”[6] ifodasida qo‘llangan “G‘azab o‘ti ko‘kraklarida yonayotganday” birligi “Devon”da qo‘llangan birikmali o‘xshatishlarga yaqqol misoldir. Birikma hozirgi o‘zbek tilida to‘la-to‘kis shaklda emas, balki qisman (birikma tarkibidagi “o‘t” so‘ziga muvofiq) holatda saqlanib qolgan. “Asosan, ko‘zga nisbatan; juda asabiy yoki xursand, jozibali holat”ga[7] nisbatan qo‘llanuvchi ushbu o‘xshatish nutqimizda “g‘azab o‘ti” shaklida ham voqelanadi.

“Seldek ularga oqdik”[8] kontekstida qo‘llangan “seldek” o‘xshatishi “Devonu lug‘otit-turk” va hozirgi o‘zbek tilida shakl va mazmun mutanosibligiga ega. “Oqmoq, yopirilmoq, bostirib kelmoq” ma’nolarida hozirgi nutqiy pragmatikada faol: “Selday bostirib kelayotgan yov otliqlari ularni daryolar tomonga surib ketdi”[9].

Ikkinchi tasnif, ya’ni “Devon”da qo‘llangan o‘xshatishlar hozirgi o‘zbek tilida shaklan mavjud bo‘lsa-da, ma’noda o‘zgarish yuz bergan o‘xshatishlar ham asar matnida ko‘zga tashlanadi. Xususan, hozirgi kunda nutqiy muloqotimizda “U yoqqa, bu yoqqa tashlanib, lapanglab yurmoq”[10] o‘xshatishi uchun asos bo‘lgan “O‘rdakday” leksemasi harakatning o‘xshashligi asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, “Devon” tarkibida ushbu o‘xshatish oddiy ma’noda qo‘llangan, hech qanday majoziy ma’noni o‘zida kasb etmagan: “O‘rdak kabi suv qushlari yig‘ladi”[11]. Ushbu o‘xshatishda o‘rdakka o‘xshagan suv qushlarining turlari nazarda tutilgan bo‘lib, kontekst majoziy

[1] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б. 4.
[2] Невелова С. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – Москва, 1979.
[3] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti,2017. – B 178.
[4] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Кўрсатилган манба. – Тошкент, 2013. – Б. 224.
[5] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Кўрсатилган манба. – Тошкент, 2013. – Б. 54-55.
[6] Mahmud Koshg‘ariy. Ko`rsatilgan manba. – B. 101.
[7] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Кўрсатилган манба. – Тошкент, 2013. – Б. 280.
[8] Mahmud Koshg‘ariy. Ko`rsatilgan manba. – B. 130.
[9] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Кўрсатилган манба. – Тошкент, 2013. – Б. 186.
[10] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Кўрсатилган манба. – Тошкент, 2013. – Б. 279.
[11] Mahmud Koshg‘ariy. Ko`rsatilgan manba. – B. 101.

ma’noga asoslangan o‘xshashlikka asoslanmagan. Bunda o‘xshatilayotgan obyekt – o‘rdak; o‘xshashga asos – suv qushlari; o‘xshashlikni hosil qiluvchi vosita esa – kabi ko‘makchisi hisoblanadi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, “Devonu lug‘otit-turk” asari tarkibidagi ayrim o‘xshatish turlari bugungi kunga qadar yetib kelmagan, masalan, “Dur va qutichalar: ya’ni oppoq daraxt gullari ochildi”[1]. Ushbu matn tarkibida quticha – daraxtga nisbatan; dur esa daraxt gullariga nisbatan ishlatilgan o‘xshatish sanalib, hozirgi o‘zbek tilida bu o‘xshatish mavjud emas.

“Qalbim bedana kabi”[2] o‘xshatishi ham bugungi kunda nutqiy muloqot jarayonida mutlaqo qo‘llanmaydi. Qalbning bedanaga muqoyasa etilishi sababi shundaki, bedana tabiatan kichik, tez harakatlanuvchi, doimo xavotirda bo‘ladigan va tinimsiz yugurib yuradigan qush bo‘lganligi sababli inson qalbidagi tashvishlanish holati ham bevosita bedanaga o‘xshatilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida qo‘llangan o‘xshatishlar turkiy xalqlarning til boyligidan xabar beruvchi muhim manba hisoblanadi. Ular turkiy elatlarning nutqiy muloqotini aks ettiruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu o‘xshatishlarning asrlarosha saqlanib qolishi madaniy merosning badiiy qiymatidan dalolat beradi.

Rezyume. Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida qo‘llangan o‘xshatishlarning hozirgi o‘zbek tilida voqelanishi xususida so‘z yuritiladi. Ta’kidlash lozimki, asardagi mavjud o‘xshatishlarning bugungi kunga qadar shakl va ma’no jihatidan mutanosib va qisman o‘xshashlikka asoslangan vositalar asosida saqlanib qolganligi, ayrim o‘xshatishlarning esa bugungi kunda mutlaqo qo‘llanmasligi xususidagi fikrlar tahlilga tortilgan.

Резюме. В данной статье рассматривается вопрос актуализации (воплощения) сравнений, использованных Махмудом Кашгари в труде «Девону луғотит-турк», в современном узбекском языке. Отмечается, что в статье анализируются мнения о том, что существующие в произведении сравнения сохранились до наших дней на основе средств, сопоставимых по форме и значению, а также средств, основанных на частичном сходстве, в то время как некоторые сравнения полностью вышли из употребления в настоящее время.

Resume. This article discusses the actualization (realization) of the similes (comparisons) used by Mahmud Kashgari in his work “Devonu Lug‘otit-Turk” in the contemporary Uzbek language. It is highlighted that the article analyzes views suggesting that the similes present in the work have been preserved to this day on the basis of tools that are equivalent in form and meaning, as well as those based on partial similarity, while opinions regarding the complete disappearance of some similes from current usage are also examined.

[1] Mahmud Koshg‘ariy. Ko`rsatilgan manba. – B. 240.
[2] Mahmud Koshg‘ariy. Ko`rsatilgan manba. – B. 202.